



## DEVELOPMENT OF NATIONAL MENTALITY IN THE CONTEXT OF IDEOLOGICAL PROCESSES AND CONTINUOUS CHANGES

*Jamshid Shuhratovich Shonazarov*

*Doctor of Philological Sciences (DSc), Associate Professor*

*Department of Social Sciences*

*Shahrisabz State Pedagogical Institute*

*e-mail: [jshonazarov1981@gmail.com](mailto:jshonazarov1981@gmail.com)*

*Shahrisabz, Uzbekistan*

### ABOUT ARTICLE

**Key words:** ideology, ideological processes, ideological threats, national values, nation, people, state, society, national mentality, human, thinking.

**Received:** 19.03.26

**Accepted:** 20.03.26

**Published:** 21.03.26

**Abstract:** Today, in the context of digital transformation in the developed world and the intensification of ideological processes, the issue of improving national values and traditions characteristic of the national mentality is becoming one of the most important tasks. The article analyzes the problems of preserving and developing the national mentality under the conditions of globalization and the digital environment.

## MAFKURAVIY JARAYONLAR VA UZLUKSIZ O'ZGARISHLAR KONTEKSTIDA MILLIY MENTALITETNING RIVOJLASHI

*Jamshid Shuhratovich Shonazarov*

*f.f.d. (DSc), dotsent*

*Ijtimoiy fanlar kafedrası*

*Shahrisabz davlat pedagogika instituti*

*e-mail: [jshonazarov1981@gmail.com](mailto:jshonazarov1981@gmail.com)*

*Shahrisabz, O'zbekiston*

### MAQOLA HAQIDA

**Kalit so'zlar:** mafkura, mafkuraviy jarayonlar, mafkuraviy tahdidlar, milliy qadriyatlar, millat, elat, davlat, jamiyat, milliy mentalitet, inson, tafakkur.

**Annotatsiy:** Bugun rivojlangan dunyoda raqamli transformatsiya sharoitida mafkuraviy jarayonlarning kuchayib borishi natijasida milliy mentalitetimizga xos bo'lgan milliy qadriyatlar va urf-odatlarini takomillashtirib borish masalasi dolzarb vazifalardan biriga aylanmoqda. Mazkur maqolada globallashtirish va raqamli muhit

ta'siri ostida milliy mentalitetni saqlash hamda uni rivojlantirish masalalari tahlil qilinadi.

## РАЗВИТИЕ НАЦИОНАЛЬНОГО МЕНТАЛИТЕТА В КОНТЕКСТЕ ИДЕОЛОГИЧЕСКИХ ПРОЦЕССОВ И НЕПРЕРЫВНЫХ ИЗМЕНЕНИЙ

**Жамиид Шухратович Шоназаров**

доктор филологических наук (DSc), доцент

Кафедра социальных наук

Шахрисабзский государственный педагогический институт

e-mail: [jshonazarov1981@gmail.com](mailto:jshonazarov1981@gmail.com)

Шахрисабз, Узбекистан

### О СТАТЬЕ

**Ключевые слова:** идеология, идеологические процессы, идеологические угрозы, национальные ценности, нация, народ, государство, общество, национальный менталитет, человек, мышление.

**Аннотация:** Сегодня, в условиях цифровой трансформации в развитом мире, на фоне усиления идеологических процессов вопрос совершенствования национальных ценностей и традиций, характерных для национального менталитета, становится одной из важнейших задач. В статье анализируются проблемы сохранения и развития национального менталитета в условиях глобализации и цифровой среды

**Kirish.** Hozirgi globalashuv davrida va raqamli transformatsiya sharoitida mafkuraviy jarayonlar nihoyatda rang-barang va murakkab tus olmoqda. Turli axborot texnologiyalarining tez sur'atlarda rivojlanib borishi, xalqaro aloqalarning kengayishi va madaniyatlar o'rtasidagi integratsiya jarayonlari kishilar ongi va tafakkuriga kuchli ta'sir ko'rsatmoqda. Bunday sharoitda milliy mentalitetni asrash va uni zamon talablari asosida rivojlantirish dolzarb vazifaga aylanib bormoqda.

Mafkuraviy jarayonlarning o'zgarib borishi — jamiyatdagi g'oyalar, qarashlar, qadriyatlar va ideologiyalarning vaqt o'tishi bilan rivojlanishi, yangilanishi yoki almashtinishini anglatadi. Bu jarayon jamiyatning siyosiy, iqtisodiy, madaniy va ijtimoiy taraqqiyoti bilan chambarchas bog'liq.

Mafkuraviy jarayonlarning o'zgarishiga ta'sir qiluvchi omillar quyidagi ko'rinishlarda namoyon bo'ladi:

- Siyosiy o'zgarishlar: davlat boshqaruv tizimidagi islohotlar, yangi siyosiy g'oyalar va strategiyalar mafkuraviy qarashlarga ta'sir qiladi.

- Iqtisodiy taraqqiyot va iqtisodiy islohotlar: bozor munosabatlarining rivojlanishi odamlarning dunyoqarashi va qadriyatlarini o'zgartiradi.
- Globalashuv jarayonlarining tezlashib borishi: dunyo mamlakatlari o'rtasidagi axborot va madaniy almashinuv yangi g'oyalarni kirib kelishini tezlashtiradi.
- Axborot texnologiyalarining takomillashib borishi: internet, ijtimoiy tarmoqlar va ommaviy axborot vositalari mafkuraviy ta'sirni juda tez tarqaladigan manba hisoblanadi.
- Madaniy va ma'naviy omillar: milliy an'analar, urf-odatlar va ma'naviy meros mafkuraviy jarayonlarni shakllantirishda muhim o'rin tutadi.

#### Tadqiqotning usullari. Tahliliy-uslub (Analitik usul)

Milliy mentalitet, mafkuraviy jarayonlar va uzluksiz o'zgarishlar haqidagi adabiyotlar, ilmiy maqolalar va tarixiy manbalar tahlil qilinadi. Ushbu usul orqali mavzuga oid nazariy asoslar va ilmiy qarashlar aniqlanadi.

#### Taqqoslash-usuli (Qiyosiy tahlil)

Turli davrlardagi mafkuraviy jarayonlar, ijtimoiy o'zgarishlar va ularning milliy mentalitetga ta'siri solishtiriladi. Bu usul yordamida mentalitetning rivojlanishidagi o'ziga xos xususiyatlar va o'zgarish tendensiyalari aniqlanadi.

#### Sotsiologik tadqiqotlar va so'rovnomalar

Jamiyat vakillari, turli yosh va ijtimoiy guruhlar orasida milliy mentalitetning bugungi holatini o'rganish uchun so'rovnomalar, intervyular va fokus-guruhlar tashkil qilinadi. Ushbu usul orqali real ijtimoiy muhitdagi o'zgarishlar va mentalitetning sezilarli jihatlari aniqlanadi.

#### Tarixiy-komparativ metod

Milliy mentalitetning tarixiy ildizlari va shakllanish jarayoni o'rganiladi. O'tgan davrlar bilan hozirgi holat taqqoslanadi, mentalitetdagi izchil va uzluksiz o'zgarishlar aniqlanadi.

#### Nazariy tahlil va konseptualizatsiya

Mafkuraviy jarayonlar va ijtimoiy o'zgarishlar kontekstida milliy mentalitet tushunchasi aniqlanadi. Bu usul yordamida mavzu bo'yicha nazariy model yoki konsept ishlab chiqish imkoniyati yaratiladi.

#### Empirik tahlil

Statistika, kuzatish va ijtimoiy tajriba orqali mentalitetning hozirgi rivojlanish darajasi o'rganiladi. Ushbu usul yordamida nazariy xulosalarni real ma'lumotlar bilan mustahkamlash mumkin.

#### Interdisiplinar yondashuv

Sotsiologiya, psixologiya, tarix va madaniyatshunoslik metodlari birlashtirilib, milliy mentalitetning rivojlanishi keng kontekstda o'rganiladi.

Natijalar. E'tibor qiladigan bo'lsak, mafkuraviy jarayonlarning o'zgarib borishi jamiyat taraqqiyotining tabiiy qismi hisoblanadi. U jamiyatdagi yangi ehtiyojlar, sharoitlar va global o'zgarishlar ta'sirida yuzaga keladi. Shu sababli har bir jamiyat o'z milliy qadriyatlari va manfaatlarini hisobga olgan holda mafkuraviy barqarorlikni ta'minlashga harakat qiladi.

Mafkura jamiyat hayotida muhim o'rin tutadi, chunki u insonlarni ma'lum maqsad va g'oyalari atrofida birlashtiradi. Shu bois mafkuraviy jarayonlar doimo rivojlanib, yangi sharoitlarga moslashib boradi.

Globalashuv jarayoni nazariy jihatdan Samuel Huntington tomonidan ilgari surilgan "madaniyatlar to'qnashuvi" g'oyasi orqali ham izohlangan. Uning fikricha, kelajakdagi asosiy ziddiyatlar siyosiy yoki iqtisodiy emas, balki sivilizatsion va madaniy asosga ega bo'ladi [9, 206-bet]. Bugungi voqelikda turli tsivilizatsiyalar o'rtasidagi qarashlar farqi ayrim hududlarda ijtimoiy-siyosiy ziddiyatlarga sabab bo'layotganini kuzatish mumkin.

Shu bilan birga, zamonaviy dunyoda liberalizm, konservatizm, milliychilik, diniy qarashlar va global fuqarolik g'oyalari o'zaro ta'sirlashib, mafkuraviy pluralizmni yuzaga keltirmoqda. Bu holat inson ongiga tanlash imkoniyatini bersa-da, ayni paytda mafkuraviy tahdidlarni ham keltirib chiqaradi.

Milliy mentalitet — bu muayyan millatga, etnik birlikka va xalqga xos bo'lgan tafakkur tarzi, qadriyatlar tizimi, urf-odatlar va axloqiy me'yorlar majmuasidir. U asrlar davomida shakllanib, xalqning tarixiy tajribasi, dini, madaniyati va ijtimoiy hayoti bilan chambarchas bog'liq bo'ladi.

Masalan, o'zbek xalqi mentalitetida mehmondo'stlik, kattalarga hurmat, oilaviy qadriyatlarga sadoqat va bag'rikenglik muhim o'rin tutadi. Bu xususiyatlar milliy o'zlikni saqlashda muhim omil hisoblanadi.

Munozara. Globalashuv bir tomondan millatlar o'rtasidagi hamkorlikni kuchaytirsa, ikkinchi tomondan milliy qadriyatlarga ta'sir ko'rsatmoqda. Ayrim hollarda ommaviy madaniyat ta'siri ostida milliy an'analarning susayishi kuzatiladi. Shu nuqtai nazardan, milliy mentalitetni zamonaviy taraqqiyot bilan uyg'unlashtirish muhim ahamiyatga ega. Bu jarayonda ta'lim-tarbiya tizimi, madaniy siyosat va oila instituti hal qiluvchi o'rin tutadi.

Ijtimoiy-falsafiy va sotsiologik tushunchalar tizimida mentalitet so'zining ham alohida o'rni bor. U turli ijtimoiy munosabatlarga katta ta'sir o'tkazuvchi omil sifatida namoyon bo'ladi. Uning asosiy subyektlarini inson, shaxs, oila, millat, xalq, ijtimoiy guruhlar, sinflar va siyosiy institutlar

tashkil etadi. Ammo nafaqat ushbu subyektlar, shu bilan birga “mentalitet” tushunchasining o‘zi ham fundamental tarzda ijtimoiy-falsafiy jihatdan tadqiqotchilar tomonidan yetarlicha o‘rganilmaganligini e‘tirof etish mumkin.

Rossiyalik tadqiqotchi A.A. Ashkhamakhovaning fikricha, “... olimlar mentalitetni yagona tushunchasini aniqlamaganlar”. Lekin shunga qaramay, “mentalitet” tushunchasi haqida turli tuman fikrlarni ilgari surish davom etmoqda. Olimning ta’kidlashicha, “... ko‘pchilik olimlar mentalitet deganda – etnik qiyofa, o‘z-o‘zini anglash, xulq-atvor stereotiplari, xatti-harakatlarini tushunadilar.”

Yurtimizda nashr etilgan Mustaqillik izohli – ilmiy-ommabop lug‘atida ushbu tushunchaga nisbatan quyidagicha ta’rif berilgan: “Mentalitet bu jamiyat, millat, jamoa yoki alohida shaxsning tarixiy taraqqiy topgan tafakkur darajasi, ma’naviy salohiyati, ularning hayot qonunlarini tahlil etuvchi kuchi, muayyan ijtimoiy sharoitlarda shakllangan aqliy qobiliyati, an’analari, urf-odatlarini, rasm-rusumlari hamda diniy e’tiqod tarzidir” [10, 118-bet]. Bu ta’rif professor M. Bekmurodov tomonidan berilgan bo‘lib, u o‘z maqolalarida uni ilmiy jihatdan asoslagan.

Professorlar A.Xolbekov va U.Idirovlar mentalitetga quyidagicha ta’rif berganlar: “Mentalitet (mens – aql, tafakkur) individ yoki bir ijtimoiy guruhning, millatning dunyoni ma’lum bir tarzda tushunib va harakat qilishga tayyorligi hamda moyilligi” [10, 118-bet].

Shuningdek, ushbu tushunchaga Falsafa qomusiy lug‘atda quyidagicha ta’rif berilgan: “Mentalitet tushunchasi (mens – aql, idrok) – jamiyat, yoki alohida shaxsning tarixiy tarkib topgan tafakkur darajasi, ma’naviy salohiyati, hayot qonunlarining tahlil etish kuchi, muayyan, ijtimoiy sharoitda shakllangan aqliy qobiliyat” [11, 269-bet].

Professor Q.X. Xonnazarov mentalitet haqida quyidagicha yozadi: “Mentalitet tushunchasi lotinchadan olingan so‘z bo‘lib jamiyat, millat, jamoa yoki alohida shaxsning tarixiy tarkib topgan tafakkur darajasi, ma’naviy salohiyati, ularning hayot qoidalarini tashkil etish kuchi, muayyan ijtimoiy sharoitlarda shakllangan aqliy qobiliyati, ruhiy qudratidir” [12].

Ushbu ta’riflarning maqsadi shundaki, mentalitet keng tarqalgan ma’naviy xususiyatlar majmuasidan iborat bo‘lgan tushuncha ekanligiga e’tibor qaratishdir. Biroq uni “omillar majmuasi” sifatida qaraydigan bo‘lsak, ularning har birini o‘ziga xos bo‘lgan “ichki” va “tashqi” tomonlari ko‘rinmasdan qolmoqda. Aslida uning boshqa ijtimoiy-falsafiy tushunchalardan farqli tomoni ham aynan ana shu xususiyat bilan bog‘liqligida namoyon bo‘ladi.

Yuqorida nomi keltirib o‘tilgan A.A.Ashkhamakhovaning ilmiy tadqiqotlarini kuzatish davomida ma’lum bo‘ldiki, u “mentalitet” mavzusi bo‘yicha bu mamlakatda e’lon qilingan barcha ilmiy asarlar, himoya qilingan dissertatsiyalarni chuqur tadqiq qilgan va ular asosida “mentalitet”

tushunchasiga quyidagi ta'rifni bergan: "Mentalitet – bu tabiiy ma'lumotlardan yuzaga keladigan sotsial komponentlar bilan bog'liq va insonning hayotiy dunyosini ochib beradigan umumiylikdir" [13].

Tom ma'noda aytganda, "mentalitet" tushunchasi xususida olimlar turli fikr bildiradilar; ularda bu tushunchaning u yoki bu qirralari o'z ifodasini topgan va bular mazkur masalani yana ham chuqur o'rganishda metodologik asos bo'la oladi. Haqiqatan ham "mentalitet" tushunchasiga to'laqonli ta'rif berish ancha murakkab masala hisoblanadi. Chunki uning subyektlari doirasi keng bo'lib, ularga xos bo'lgan umumiy tomonlarni bir tizimga keltirish talab etiladi. Shu kabi, inson, shaxs, oila, millat, xalq, ijtimoiy sinflar va guruhlar, siyosiy institutlar uchun umumiy tomonlar nimadan iboratligini aniqlash lozim. To'g'ri, ularning barchasi inson omiliga borib taqaladi. Biroq inson ham turli subyektlar tizimida turli maqomda, manfaatda va boshqa jarayonlarda ishtirok etadi.

Shu ma'noda, "mentalitet"ga ta'rif berishda ana shu omilni asos qilish maqsadga muvofiqdir.

Ayni shunga o'xshash xulosalar asosida "milliy mentalitet" tushunchasiga ham turlicha qarashlar shakllangan bo'lib, ularda o'ziga xos bo'lgan ko'pgina ilmiy qirralar o'z ifodasini topgan. Jumladan, A.A. Ashkhamaxovaning fikricha, "Milliy mentalitet tushunchasida millat hayotining obyektiv va subyektiv tomonidan yaxlitligi tushuniladi. Bu millat mentalitetini yangicha, ya'ni mohiyat va hodisa dialektik yakdilligi asosida tadqiq qilishga yordam beradi. Milliy mentalitet mohiyat sifatida – bu milliy hayotiy faoliyatning ichki subyektiv tarafi bo'lib, milliy ruhiyatning barqaror qismidir, ijtimoiy hodisa sifatida esa xalq faoliyatida ushbu mohiyatning obyektivlashgan qismidir" [13].

Yurtimizda ham "milliy mentalitet" tushunchasiga ta'rif berish borasida bir qator izlanishlar va urinishlar mavjud. Xususan, Falsafa qomusiy lug'atda: "milliy mentalitet" (mens – aql, tafakkur, fikrlash tarzi) – milliy ong va faoliyat xarakterini ifodalovchi tushuncha" sifatida berilgan ta'rif kelib chiqadi. Biroq ushbu ta'rifda ham milliy mentalitet uchun xos bo'lgan "tafakkur" va "fikrlash tarzi"ni aniq ko'rsatuvchi omillar o'rni yetishmaydi. Unda uning "o'ziga xos xususiyati" emas, balki "milliy ong va faoliyat xarakterini ifodalovchi" xususiyati tushuncha sifatida berilgan. Agar bu tushuncha shunday berilsa, o'zbeklar bilan boshqa xalq faoliyatlarini moddiy va ma'naviy boylklarni yaratish "xarakteri" bilan farqlash mumkin degan fikr kelib chiqish ehtimoli yo'q emas.

"Mentalitet"ga tadqiqotchi F.Turg'unov quyidagicha ta'rif bergan: "Mehnat mentaliteti muayyan tabiiy, iqlim, iqtisodiy, ijtimoiy, siyosiy va ma'naviy shart-sharoitlarda yashayotgan

shaxs, oila, millat, elat va xalqning o'z hayotiy ehtiyojlarini qondirish va o'zligini topish maqsadida olib borilgan ongli, tarixiy, amaliy faoliyati, tafakkur darajasi, ma'naviy salohiyati, hayot tarzi, milliy ruhiyatning namoyon bo'lish usulidir" [14].

Muallifning fikricha, "Masalani bu tartibda qo'yilishi inson va jamiyat hayot faoliyatida mehnatning o'rni va rolini to'g'ri tushunish va boshqarish, mehnatga munosabatni o'zgartirish va jamiyatning rivojlanish omillarini aniqlash imkonini beradi." Keltirilgan ta'rifning muhim xususiyati unda "milliy ruhiyatning namoyon bo'lishi..." g'oyasining ilgari surilayotganda ko'rinadi.

Haqiqatan ham mehnat qilish shart-sharoitlari va omillari yashash va ulardan foydalanishda milliy ruhiyat har doim namoyon bo'ladi. Ammo ta'rifda muallif tomonidan ko'rsatilgan omillarda "Milliy ruhiyatning namoyon bo'lish usulidir" degan fikr bir oz g'aliz chiqqan.

Professor Ibrohim Karimov milliy tabiatni mentalitet bilan bir xil tushuncha sifatida qaraydi. U shunday yozadi: "O'zbeklar tarixan boshqa millatlar hamda o'zga diniy e'tiqod egalari his-tuyg'ulariga zo'r hurmat qilish ruhida tarbiyalangan jahondagi zakovatli millatlar sirasiga kiradilar. Sakhovatpeshalik, ochiq ko'ngillilik, rahm-shafqatlilik, insonparvarlik, mehmondo'stlik, andishalik, izzat-ikromlilik – bular o'zbek milliy tabiati (mentaliteti)ning ajralmas xususiyati bo'lib, bu kabi fazilatlar tufayli ular o'z millati sha'nini himoya qilib keladilar" [15].

Bu fikr ham qiziqarli va ilmiy munozara uchun asos bo'ladi. Haqiqatan ham muallif tomonidan ko'rsatilgan fazilatlarni "mentalitet"ga xos bo'lgan xususiyatlarga kiritish mumkin. Ammo unda "tabiat" va "mentalitet" bir ma'noni anglatuvchi tushuncha bo'lib qolayotir. Fikrimizcha, ular o'rtasida ma'lum farqlarni ko'rsatganda yanada aniqroq bo'lardi.

Xulosa qilib aytganda, yuqorida keltirilgan ta'riflarning barchasida "milliy mentalitet"ning mustaqil maqomiga xos bo'lgan barcha omillar mavjud.

Bugungi dunyoning mafkuraviy manzarasi murakkab va ko'p qirrali bo'lib, turli g'oya va qarashlar o'rtasidagi kurash sharoitida har bir millat o'z milliy mentalitetini saqlash va rivojlantirish mas'uliyatini yuzaga chiqaradi. Milliy mentalitet nafaqat tarixiy tajriba va milliy qadriyatlar majmuasi, balki xalqning zamonaviy ijtimoiy, siyosiy va madaniy jarayonlarga munosabatini belgilovchi muhim vosita hisoblanadi.

Globalashuv jarayoni millatlar o'rtasidagi hamkorlik va madaniy almashinuvni kuchaytirsa-da, u milliy qadriyat va an'analar uchun muayyan tahdidlarni ham yuzaga keltiradi. Shu bois milliy mentalitetni asrab-avaylash zamon talablariga mos ravishda uni yangilash va rivojlantirish bilan

uyg'unlashishi lozim. Bu jarayonda ta'lim tizimi, madaniy siyosat, oila instituti va jamiyatning boshqa ijtimoiy institutlari muhim rol o'ynaydi.

Milliy mentalitetni shakllantirish va rivojlantirishning eng muhim jihatlaridan biri — uning mohiyati va hodisa sifatidagi ikki tomonini tushunishdir. Mohiyat sifatida milliy mentalitet milliy ruhiyatning ichki subyektiv qismi bo'lib, insonning, oilaning va jamiyatning ichki ongida saqlanadi; hodisa sifatida esa u xalq faoliyatida, amaliy ish va ijtimoiy munosabatlarda namoyon bo'ladi. Shu nuqtai nazardan, milliy mentalitet millatning tarixiy va madaniy xususiyatlarini saqlab qolish, shuningdek, yangi zamonaviy talablarga moslashish imkoniyatini beradi.

Shuningdek, milliy mentalitet millatning ichki birligini mustahkamlash, insonlar o'rtasida hamjihatlikni oshirish va milliy qadriyatlarni kelajak avlodga yetkazishda muhim vosita hisoblanadi. U millatning tarixiy xotirasi, urf-odatlarini, axloqiy va ma'naviy me'yorlarini jamiyat hayotiga tadbiiq etishda asosiy rol o'ynaydi. Shu bilan birga, milliy mentalitet jamiyatda demokratik, huquqiy va madaniy qadriyatlarning mustahkamlanishiga ham hissa qo'shadi.

Bugungi kunda har bir millat o'z milliy mentalitetini faqat saqlab qolmasdan, balki uni yangilash, boyitish va global jarayonlar bilan uyg'unlashtirishga harakat qilishi lozim. Faqat shu yo'l bilan milliy o'zlik saqlanadi, xalqning ijtimoiy va madaniy barqarorligi mustahkamlanadi va jamiyat barqaror taraqqiyot yo'lidan boradi.

Shu sababli milliy mentalitetni o'rganish va rivojlantirish nafaqat akademik tadqiqotlar, balki amaliy siyosat, ta'lim va madaniyat sohalarida ham muhim ahamiyatga ega bo'lib, u millatning kelajagini belgilovchi asosiy omil sifatida qaralishi lozim.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:**

1. Mirziyoyev Sh. M. Yangi O'zbekiston strategiyasi. – Toshkent: O'zbekiston, 2021.
2. Milliy g'oya: asosiy tushuncha va tamoyillar. – Toshkent: Ma'naviyat, 2001.
3. Milliy g'oya: targ'ibot texnologiyalari va atamalar lug'ati. – Toshkent: Akademiya, 2007.
4. Ma'naviyat asoslari: o'quv qo'llanma. – Toshkent: O'zbekiston, 2013.
5. Falsafa: darslik. – Toshkent: O'zbekiston Milliy universiteti nashriyoti, 2016.
6. Sotsiologiya: darslik. – Toshkent: O'zbekiston, 2018.
7. Madaniyatshunoslik asoslari. – Toshkent: Ma'naviyat nashriyoti.
8. O'zbekiston tarixi: oliy o'quv yurtlari uchun darslik. – Toshkent: O'zbekiston nashriyoti.
9. Raxmonberdiyev I. Sivilizatsiyalar taraqqiyotida madaniyatlar to'qnashuvining ijtimoiy-falsafiy ahamiyati (Samyuel F. Xantingtonning "Sivilizatsiyalar to'qnashuvi" asari

asosida) // Ijtimoiy-gumanitar fanlarning dolzarb muammolari / Aktualnye problemy sotsialno-gumanitarnyx nauk / Actual Problems of Humanities and Social Sciences. – 2024. – 4(1). – DOI: <https://doi.org/10.47390/SPR1342V4I1Y2024N28>.

10. Abdullayev M., Abdullayeva M., Abdurazzoqova G. va boshq. Mustaqillik: izohli ilmiy-ommabop lug‘at / umumiy tahrir ostida A. Jalolov, K. Xonazarov. – T.: Sharq, 1998. – 320 b. – O‘zbekiston Fanlar akademiyasi I.M. Mo‘minov nomidagi Falsafa va huquq instituti.

11. Falsafa: qomusiy lug‘at. – T.: O‘zbekiston faylasuflari milliy jamiyati nashriyoti, “Sharq” nashriyot-matbaa aksiyadorlik kompaniyasi bosh tahririyati, 2004. – 491 b.

12. Xonnazarov Q.X. Milliy mentalitet – taraqqiyot omili// Muloqot. – Toshkent, 2000. -№3. – B 3.

13. Ашхамахова А.А. Социально-философский анализ менталитета: общее и особенное. Автореф. дис. ...док филос. наук. Нальчик : 2006.- 24 с.

14. Turg‘unov F. Mehnat mentaliteti: yangilanish va taraqqiyot dialektikasi. – Toshkent: “O‘zbekiston faylasuflarimilliy jamiyati”. 2004.—B. 13-14.